

## MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY HAYOTI VA IJODINING XORIJDA O‘RGANILISHI

**Abdurasulova Mohinur Muhammadqodir qizi,**  
*ADU, Adabiyotshunoslik yo‘nalishi*  
*2-kurs magistranti*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18747549>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jadidchilik harakatining yo‘lboshchisi Mahmudxo‘ja Behbudiyning (1874–1919) hayoti, ko‘p qirrali faoliyati hamda ijodining xorijiy ilmiy muhitda o‘rganilishi kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda allomaning transmilliy ma‘rifiy faoliyati, xalqaro matbuotdagi o‘rni, dramaturgiya hamda publisistik merosining jahon sharqshunosligida ko‘rsatgan ta‘siri yoritilgan. Shuningdek, Turkiya, Rossiya, AQSH va arab mamlakatlarida shakllangan behbudiyshunoslik yo‘nalishlari zamondosh shogirdlari qoldirgan ma‘lumotlar orqali o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** jadidchilik, Behbudiy, transmilliy, xalqaro matbuot, “Oyna” jurnali, AQSH, Turkiya, Yaponiya.

**Аннотация.** В данной статье комплексно анализируются жизнь (1874–1919), многогранная деятельность и изучение творчества Махмудхо‘жа Бехбудий – лидера джадидского движения – в зарубежной научной среде. В исследовании освещены транснациональная просветительская деятельность ученого, его место в международной прессе, а также влияние его драматургического и публицистического наследия на мировое востоковедение. Кроме того, направления бехбудиеведения, сформировавшиеся в Турция, Россия, Соединённые Штаты Америки и арабских странах, изучены на основе сведений, оставленных его современниками и учениками.

**Ключевые слова:** джадидизм, Бехбудий, транснациональный, международная пресса, журнал «Ойна», США, Турция, Япония.

**Abstract.** This article provides a comprehensive analysis of the life (1874–1919), multifaceted activities, and the study of the works of Mahmudxo‘ja Behbudiy, the leader of the Jadid movement, within the foreign academic environment. The research highlights the scholar’s transnational educational activities, his role in the international press, and the impact of his dramaturgical and journalistic legacy on world Oriental studies. In addition, the directions of Behbudiy studies formed in Turkey, Russia, United States, and Arab countries are examined based on information left by his contemporaries and students.

**Keywords:** Jadidism, Behbudiy, transnational, international press, Oyna journal, United States, Turkey, Japan.

**Kirish.** XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida yuz bergan tub burilishlar jadidchilik harakati bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu harakat nafaqat mahalliy darajadagi ma‘rifiy islohotlarni, balki musulmon dunyosining modernizatsiya jarayonlarini ham jadallashtirdi. Mazkur jarayonning eng faol va serqirra namoyandalaridan biri mutafakkir Mahmudxo‘ja Behbudiy sanaladi. U chin ma‘noda “Butun islom dunyosi, boxusus jaholat qorong‘ulig‘inda qolg‘on Turkiston o‘lkasi murshid va rahbarlarig‘a nihoyat darajada muhtoj bo‘ldig‘i bir zamonda Turkiston xalqig‘a mehribon ota va ustoz manzalasinda bo‘lg‘on muxtaram muharririmiz mufti Mahmudxo‘ja Behbudiy hazratlari...” edi. So‘nggi yillarda jadidchilik merosiga bo‘lgan ilmiy qiziqish yanada ortib, transmilliy nuqtayi nazardan olib borilayotgan tadqiqotlar soni

ko'payib bormoqda. Shu bois Behbudiy faoliyatining xorijlik ijodkorlar tomonidan o'rganilishini tizimli ravishda tadqiq etish dolzarb ilmiy masalalardan biriga aylanib ulgurgan. Mazkur maqolaning maqsadi – Behbudiy hayoti va ijodining xorijiy ilmiy muhitda o'rganilish darajasini tahlil qilish, uning xalqaro miqyosdagi ma'rifiy ta'sirini aniqlash hamda zamonaviy behbudiyshunoslik yo'nalishlarini umumlashtirishdan iborat. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Jadidchilik harakati namoyandalarining boy ilmiy va ma'rifiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish bugungi kunning muhim vazifasidir”.

**Adabiyotlar tahlili.** Mahmudxo'ja Behbudiy merosi xorijiy ilmiy adabiyotlarda, avvalo, jadidchilik va islom modernizmi doirasida tahlil qilingan. Xususan, Adeeb Khalid o'z tadqiqotlarida Behbudiyni musulmon madaniy islohoti siyosatining muhim namoyandasi sifatida baholab, uning dramaturgiyasi va publitsistikasini ijtimoiy modernizatsiya jarayoni bilan bog'laydi. Edward Allworth va Ingeborg Baldauf esa Behbudiy faoliyatini milliy uyg'onish, til siyosati va ta'lim islohotlari kontekstida o'rgangan. Shuningdek, Hisao Komatsu hamda Zeki Velidi Togan asarlarida allomaning transmilliy aloqalari va Turkiston jadidchiligi tarixidagi o'rni muhim tarixiy manbalar asosida yoritilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolada qiyosiy-tarixiy va tahliliy-sintetik metodlardan foydalanildi. Xorijiy va milliy ilmiy manbalar, arxiv materiallari hamda zamondoshlarning xotiralari asosida Behbudiy hayoti va ijodining o'rganilish darajasi tizimli ravishda tahlil qilindi. Shuningdek, transmilliy yondashuv asosida uning xalqaro matbuot va ilmiy muhitdagi o'rni konseptual jihatdan umumlashtirildi.

**Tahlillar va natijalar.** Mahmudxo'ja Behbudiy 1874-yilda Samarqandda tavallud topib, an'anaviy diniy ta'lim bilan bir qatorda dunyoviy bilimlarni ham puxta egalladi. Uning intellektual shakllanishida Hijoz safari, shuningdek, Istanbul va Misr kabi yirik madaniy markazlarga qilgan tashriflari muhim rol o'ynadi. Ayniqsa, Makka va Madinaga qilgan safari davomida u musulmon olamidagi islohotchilik harakatlari bilan yaqindan tanishdi. Istanbulda esa usmonli modernizatsiyasi tajribasini kuzatib, uni Turkiston sharoitiga moslashtirish g'oyasini ilgari surdi. Shu tariqa Behbudiy dunyoqarashi mahalliy doiradan chiqib, transmilliy xarakter kasb eta boshladi. Mahmudxo'ja Behbudiyning sayohat xotiralari va uning Falastin bilan bog'liq qarashlari jadidchilik mafkurasining amaliy ifodasi sifatida muhim ilmiy ahamiyatga egadir. U sayohatni oddiy taassurotlar yig'indisi sifatida emas, balki ijtimoiy -ma'rifiy xulosalar chiqarish vositasiga aylantirdi. Bu esa jadid adabiyotiga xos analitik tafakkur va ma'rifatparvarlik ruhini namoyon eta boshladi.

Behbudiy faoliyatining eng muhim jihatlaridan biri uning xalqaro matbuot maydonidagi ishtirokidir. U o'z maqolalari orqali Turkiston muammolarini keng musulmon jamoatchiligiga yetkazishga intildi. “Mahmudxo'ja Behbudiyni O'rta Osiyodagi barcha jadidlarni birlashtirishga intilgan yirik namoyanda desak, xato

qilmaymiz. U butun Chor Rusiyasidagi hur fikrli, ma'rifatparvar musulmonlar bilan aloqada bo'lib turar, ayniqsa, Ismoilbey G'aspiralining ashaddiy muxlisi edi... U musulmonlardan dunyoga ochiq ko'z bilan qarashni, zamonaviy xo'jalik yuritishda bilim, fan bilan qurollanib faollik ko'rsatishni talab etardi" – deb yozadi Ingeborg Baldauf. Behbudiy o'z maqolalarida musulmon jamiyatining taraqqiyoti uchun zamonaviy bilim va fan zarurligini qat'iy ta'kidlaydi. Shu orqali ma'rifatni faqat nazariy da'vat darajasida qoldirmay, uni amaliy faoliyat bilan boshladi. Uning ketma-ket darsliklar yozishi, o'quv qo'llanmalari yaratishi va milliy teatrni tashkil etish harakatlari jadidchilikning kompleks islohot dasturini vujudga keltirgan. Bu jihat esa uning faqatgina adib emas, balki ijtimoiy islohotchi sifatida ham namoyon qiladi. Baldaufning qayd etishicha, "Mahmudxo'ja faoliyatining g'oyat o'ziga xosligidan qat'i nazar u Qrimdagi G'aspirali, qozon tatarlarining Qayum Nosiriysi, usmonli turklarning Ahmad Midhati singari O'rta Osiyoning xalq muallimi edi. U hayotning turli sohalariga taalluqli zamon ruhidagi bilimlarni yuksak tarbiyaviy talabchanlik bilan boshqalarga qaraganda maroqliroq, qiziqarliroq, oddiyroq tarzda xalq tilida yoyishga intildi. "Usul-i jadid" maktablari g'oyasini qo'llab-quvvatlash orqali ta'limni jamiyat yangilashining strategik vositasi deb bildi. Behbudiy xorijiy safarlari davomida musulmon dunyosining mashhur ma'rifatparvarlari bilan uchrashib, Turkistonning ijtimoiy-siyosiy ahvolini yorituvchi maqolalar e'lon qila boshladi. Transmilliy matbuotdagi ishtiroki tufayli Behbudiyning maqolalari o'sha davrning eng nufuzli nashrlarida, jumladan, Orenburgdagi "Vaqt" gazetasi va "Sho'ro" majmuasi sahifalarida muntazam chop etilib turgan. Birinchi jahon urushi arafasida Istanbul, Misr va Suriyaga qilgan safarlari uning xalqaro matbuotchilar bilan aloqalarini yanada mustahkamlashga xizmat qildi. Behbudiy 1913-yilning aprel oyida o'zbek va tojik tillardagi "Samarqand" gazetasini chiqara boshladi. Biroq moddiy tanqislik tufayli gazeta chiqarilishi 45-sonidan to'xtab qoladi. Shu yilning avgust oyiga kelib "Oyna" jurnalini nashrdan chiqardi. 1913–1915-yillar davomida chop etilgan "Oyna" jurnali (jami 68 son) nafaqat Turkistonda, balki Rossiya, Turkiya va bir qator Arab davlatlarida o'qilgan. Jurnalda ta'lim islohoti va milliy o'zlikni anglash masalalari o'zbek va fors tillarida yoritilgani uning mintaqaviy nufuzini oshirgan. Zamondosh shogirdi Erturkning ma'lumot berishicha: "Behbudiy "Samarqand" gazetasidan tashqari, Samarqandda ikki haftada bir daf'a "Oyina" (1913-1915) adabiy majmuasini chiqarib turdi. Ruslar gazetani yopdilar, biroq Behbudiyning qalamini sindira olmadilar. Ul "Oyina" majmuasi ruslar tomonidan ta'qib etilguncha, bul majmua orqali adabiy fikrlarini Ubaydulla Xo'ja tomonidan chiqarilmoqda bo'lgan "Sadoyi Turkiston" gazetasi orqali siyosiy fikrlarini yozib boruvga muayassar bo'ldi". Behbudiy maqolalari mavzu ko'lami keng bo'lib, ular: arxeologiya, astronomiya, jug'rofiya, savdo, gigiyena, qishloq xo'jaligi va adabiyot kabi sohalar doirasida bo'lgan. U barcha musulmon xalqlari to'g'risidagi bilimlarini chuqurlashtirishga alohida bir muhabbat bilan intiladi. Shu sababli islom dunyosidan olingan turli asl ishonchli xabarlarini chop ettirgan. Usmonli turk, tatar, fors,

afg'on, gazetalarining xabarlarini sharhlab, vatandoshlariga islom dunyosi ular to'g'risida qanday fikrda ekanligini bayon qildi. Behbudiy jurnalni avvaliga turkiy, fors va rus tillarida chiqarishni maqsad qilgan va shunga ko'ra uni avvaliga to'rt tilda "Oyina-Ko'zgu-Mir'ot-Zerkalo" deb nomlagan. Bu uning o'quvchilar doirasini yanada kengaytirardi, biroq turkiy va fors tillardagina chiqarishga muvaffaq bo'lgan.

Hozirgi kunga kelib Behbudiy merosi xalqaro miqyosda keng targ'ib qilinmoqda. Xususan, Eronda allomaning islom islohotchiligidagi o'rni yuqori baholanib, asarlari fors tiliga tarjima qilinmoqda. Mahmudxo'ja Behbudiy merosi nafaqat O'zbekistonda, balki jahonning nufuzli ilmiy markazlarida "Markaziy Osiyo jadidchiligi" va "Islom modernizmi" yo'nalishlari doirasida juda jiddiy o'rganiladi. G'arb va Sharq olimlari uni mintaqadagi ma'rifatparvarlik harakatining "intellektual yetakchisi" deb tan oladilar.

AQSH va G'arbiy Yevropa tadqiqotchi olimlari Behbudiyini ko'proq siyosiy va ijtimoiy islohotchi, zamonaviy milliy o'zlikni shakllantirgan shaxs sifatida tahlil qilishadi. Xususan, Adib Xolid (AQSH, Karleton kolleji): Jadidchilik bo'yicha dunyodagi eng yetakchi mutaxassislardan biri sanaladi. Uning "The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia" (Markaziy Osiyoda jadidchilik: Musulmon madaniy islohoti siyosati) asarida Behbudiyning "Padarkush" dramasi va "Oyna" jurnali tahliliga keng o'rin berilgan. Xolid Behbudiyini "Islomiy an'analar va zamonaviylikni bog'lovchi ko'prik" (The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. University of California Press) deb ataydi. Kolumbiya universiteti o'qituvchisi Edvard Ollvort esa O'zbek zamonaviy adabiyoti va dramaturgiyasining shakllanishida Behbudiyning rolini tadqiq qilgan. U o'z asarlarida Behbudiyini Turkistonning milliy uyg'onish davri mafkurachisi sifatida ko'rsatadi. Ingeborg Baldauf (Germaniya, Berlin universiteti): Behbudiyning til siyosati va uning darsliklar yaratishdagi metodikasini lingvistik nuqtayi nazardan o'rgangan.

Turkiyada Behbudiy merosi "Turk dunyosi birligi" va "ma'rifatparvarlik" kontekstida o'rganiladi. Professor Ahmad Zakiy Validiy To'g'on o'zining "Xotiralar" asarida Behbudiy bilan Samarqanddagi uchrashuvlari, uning siyosiy qarashlari va jadidlar o'rtasidagi nufuzi haqida qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. Shuningdek, Ahmet Kanlidere: Jadidchilik harakati bo'yicha ilmiy izlanishlari davomida Behbudiy va Ismoil Gasprinskiy o'rtasidagi g'oyaviy yaqinlikni, "Usuli jadid" maktablarining Turkiyadagi ta'lim islohotlari bilan bog'liqligini tadqiq qilgan. Nasiye Akpolat esa Behbudiyning publitsistik faoliyati va "Oyna" jurnalidagi ijtimoiy masalalarni tahlil qilgan ilmiy ishlar muallifidir.

Yaponiya Markaziy Osiyo tarixini o'rganishda juda kuchli maktabga ega. Tokio universiteti professori Hisao Komatsu Behbudiyning maqolalari va uning musulmon dunyosidagi islohotlarga munosabatini chuqur o'rgangan. Komatsu Behbudiyning 1914-yildagi sayohatini mintaqadagi "intellektual mobilizatsiya" ning asosi deb hisoblaydi.

**Xulosa.** Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining qisqa, ammo mazmunli umri davomida Turkiston va jahon musulmonlari birligi uchun xizmat qildi. 2025-yil 3-yanvar kuni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, 2025-yilda Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida “Mahmudxo‘ja Behbudiy merosi va jadidchilik harakatini o‘rganishning dolzarb masalalari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi. Ushbu konferensiya davomida alloma hayoti va ijodi borasidagi ilmiy izlanishlar keng muhokamaga qo‘yildi.

Uning hayoti va ijodi bugungi kunda AQSH, Turkiya, Yaponiya va Arab mamlakatlarida o‘rganilayotgani uning umumbashariy ahamiyatga ega shaxs ekanidan dalolat beradi. Olib borilgan tadqiqotlar va xorijiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Mahmudxo‘ja Behbudiy merosi nafaqat milliy, balki transmilliy miqyosdagi fenomen hisoblanadi. Uning hayoti va ijodini xalqaro miqyosda o‘rganish natijasida transmilliy ta‘lim va matbuotga qo‘shgan ulkan hissasini ko‘rishimiz mumkin.

Behbudiy jahon sharqshunosligida “Markaziy Osiyo jadidchiligi” va “Islom modernizmi” yo‘nalishlarining intellektual yetakchisi sifatida e‘tirof etilgan. Xususan, G‘arb olimlari uni an‘anaviy qadriyatlar va zamonaviylikni bog‘lovchi “ko‘prik” deb baholaydilar. Allomaning Hijoz, Istanbul va Misr kabi madaniy markazlarga qilgan safarlari uning dunyoqarashini kengaytirib, Turkiston ma‘rifatparvarligiga xalqaro ruh bag‘ishlagan. U asos solgan “Oyna” jurnali o‘z davrida nafaqat mintaqada, balki Rossiya, Turkiya va bir qator arab davlatlarida o‘qilgani uning xalqaro nufuzidan dalolat beradi. Xorijiy davlatlar, AQSH (Adib Xolid, Edvard Ollvort), Germaniya (Ingeborg Baldauf), Yaponiya (Hisao Komatsu) va Turkiya (Ahmad Zakiy Validiy To‘g‘on) Behbudiy merosini tizimli ravishda o‘rganishni yo‘lga qo‘ygan. Bu tadqiqotlarda uning dramaturgiya, til siyosati va ta‘lim islohotlaridagi o‘rni yangicha paradigmalarda tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 150 yillik yubileyini nishonlash to‘g‘risidagi qarori va 2025-yilda o‘tkazilgan xalqaro konferensiya alloma merosini o‘rganishning yangi bosqichini boshlab berdi. Behbudiy g‘oyalari bugungi kunda ham milliy o‘zlikni anglash va ma‘rifiy jamiyat barpo etishda strategik vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, Mahmudxo‘ja Behbudiyning transmilliy faoliyati va boy ilmiy merosi jahon madaniyati taraqqiyotiga qo‘shilgan ulkan hissa bo‘lib, uni o‘rganish Markaziy Osiyoning jahon tamaddunidagi o‘rnini xolis baholash imkonini beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Akpolat, N. Mahmud Hoca Behbudi ve “Ayine” Dergisi Üzerine Bir İnceleme. – Ankara: Hacettepe Üniversitesi, 2005.
2. Allworth, E. A. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present: A Cultural History. – Hoover Institution Press, 1990.
3. Baldauf, I. Jadidism in Central Asia within the Reformism of the Muslim World. – Berlin: Klaus Schwarz Verlag, 2001.
4. Behbudiy, Mahmudxo‘ja. Tanlangan asarlar. J.1. – Toshkent: «Akademnashr», 2018. – 512 b.

5. Behbudiy, Mahmudxo‘ja. Tanlangan asarlar. J.2. – Toshkent: «Akademnashr», 2018. – 312 b.
6. Behbudiy, Mahmudxo‘ja. Tanlangan asarlar. 2-nashr / Nashrga tayyorlovchi, to‘plovchi, so‘zboshi va izohlar muallifi — prof. Begali Qosimov. – Toshkent: «Ma’naviyat», 1999.
7. Erturk. Behbudiy haqida ma’lumotlar // "Milliy Turkiston" jurnali. – 1950-yil mart, 66-son.
8. Hoji Muin. Mahmudxo‘ja Behbudiy hazratlari // “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi. – 1920-yil 8-aprel, 152-son.
9. Kanlidere, A. Reform within Islam: The Tajdid and Jadid Movement among the Kazan Tatars (1809–1917). – Istanbul: Eren Publishing, 1996.
10. Khalid, A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – University of California Press, 1998.
11. Komatsu, H. Central Asia in the Context of World History. – Tokyo: The University of Tokyo Press, 2007.
12. Mirziyoyev, Sh. M. “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi. – 2023-yil 11-dekabr.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxoja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash tog‘risida”. – 2025-yil 3-yanvar.
14. Togan, Z. V. Hatıralar: Türkistan ve Diğer Müslüman Doğu Türklerinin Millî Varlık ve Kültür Mücadeleleri. – İstanbul, 1969.
15. Yaxshiliqov J., Ubaydullaeva N. Jadidchilik va Behbudiy. – Toshkent: «Fan» nashriyoti, 2004. – 188 b.
16. “Mahmudxo‘ja Behbudiy merosi va jadidchilik harakatini o‘rganishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Samarqand: SamDU nashri, 2025.

Ajlinvaz atindagi  
NOKIS MAMLEKETLIK  
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI  
NMPi  
1934